



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-08, www.jarqorgon.uz

2021 - yil 16 - dekabr

VI-35-81-8-112-K/21

Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

### **Tumandagi past rentabelli yer uchastkalarini zahiraga qaytarish va zaxiraga qaytarilgan yer maydonlarini dehqon xo‘jaligi tashkil etgan holda sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish loyihalarga rozilik berish to‘g‘risida**

“Maxalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” Qonunining 24-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 yanvardagi 22-son hamda 2021 yil 24 noyabrdagi 709-son qaroriga asosan, xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tumani Kengashi,

#### **QAROR QILADI:**

1. Jarqo‘rg‘on tuman xokimligi, qishloq xo‘jaligi bo‘limi, tuman kadastrlar agentligi va palatasining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, hududlarni ixtisoslashtirish, bo‘sh turgan, zaxiradagi va kelgusida zaxiraga olinadigan yer maydonlarini qishloq xo‘jaligi korxonasi yoki dehqon xo‘jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo‘yicha loyihalarni tayyorlash haqidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 23 noyabrdagi PQ-20-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 noyabrdagi 709-son qarori bilan fermer xo‘jaliklari va klasterlar foydalanishidagi past hosilli paxta va g‘alladan qisqartirilgan 200 ming gektar ekin maydonlarini 2022 — 2025 yillarda **1 — 1.13-ilovalarga** muvofiq bosqichma-bosqich zaxiraga qaytarish hamda zaxiraga qaytarilgan yer maydonlarini dehqon xo‘jaligi tashkil etgan holda sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish uchun fuqarolarga 0,10 gektardan 1 gektargacha bo‘lgan o‘lchamlarda ochiq elektron tanlov orqali 10 yilga ijaraga berish to‘g‘risidagi takliflari qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimligi (A.Xushnazarov), Davlat kadastrlar agentligi tuman bo‘limi (B.Allaberdiev), qishloq xo‘jaligi bo‘limi (T.Mengliqulov) hamda tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi(R.Boynazarov) 7 kun muddatda;

- ixtiyoriy ravishda egaligidagi yer uchastkalarining konturlar kesimidagi qismini zaxiraga qaytarish bo‘yicha fermer xo‘jaliklari tomonidan taqdim etilgan arizalar bo‘yicha o‘z xulosalarini ko‘rib chiqish uchun xalq deputatlari tuman kengashiga kiritsin.

4. Tuman hokimligi (B.O‘roqov) Davlat kadastrlar agentligi tuman bo‘limi (B.Allaberdiev) va qishloq xo‘jaligi bo‘limi (T.Mengliqulov) bilan birgalikda 10 kun muddatda mazkur xulosalar kengashda tasdiqlangandan so‘ng fermer xo‘jaligi yer maydonini zaxiraga olib qo‘yish haqidagi qaror qabul qilish uchun viloyat xokimligiga taklif kiritsin.

5. Qishloq xo‘jaligi bo‘limi va fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining

kelgusida zaxiraga qaytarilishi mumkin bo'lgan mazkur yer uchastkalarida xududlarning ixtisosligidan kelib chiqqan holda ixtisoslashtirish va qishloq xo'jaligi korxonasi yoki dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarishga oid tayyorlangan loyihalari bo'yicha taklifiga rozilik berilsin.

6. Tuman hokimiligi (A.Xushnazarov) tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (T.Mengliqulov), Kadastr agentligi Jarqo'rg'on tumani bo'limi (B.Allaberdiyev), Kadastrlar palatasi tuman filiali (I.Mamayusupov) bilan birgalikda:

- Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 noyabrdagi 709-sonli "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-xuquqiy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida berilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash;

- mazkur qarorga muvofiq dehqon xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berishning ma'muriy reglamentiga qat'iy rioya qilish topshirilsin.

7. Sektor rahbarlari qishloq xo'jaligi bo'limi (T.Mengliqulov), kadastrlar palatasi tuman filiali (I.Mamayusupov) bilan birgalikda dehqon xo'jaligi tashkil etish istagida bo'lgan tumandagi "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" ruyxatlarida turgan ehtiyojmand oilalarni ochiq elektron tanlovlarga faol ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida, ularda elektron axborot tizimi kunikmalarini shakllantirishda kumaklashish choralari ko'rsin.

8. Xalq deputatlari tuman Kengashi O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 noyabrdagi PQ-20-sonli "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 noyabrdagi 709-sonli "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-xuquqiy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlarining mazmun mohiyati, axamiyatini, bunda kutiladigan ijobiy natijalar to'g'risida aholiga, ayniksa "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftar"lari ruyxatda turgan ehtiyojmand oilalarga, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash bo'yicha katta imkoniyat mavjudligi xaqida tushuntirish va tartibot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilsin.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati (S.Mamatmurodov), "Jarqo'rg'on" tuman gazetasi taxriri (A.Poyonov) tumanda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, tuman xududlarini ixtisoslashtirish, bo'sh turgan, zahiradagi va kelgusida zahiraga olinadigan yer maydonlarini qishloq xo'jaligi korxonasi yoki dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo'yicha tayyorlangan loyixalar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tuman mahalliy ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Jarqo'rg'on tuman Kengashi agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari doimiy komissiyasi (N.Shomurodov), tuman hokimining o'rinbosari A.Xushnazarov zimmasiga yuklatilsin.

**Жарқўрғон туман ҳокими**



**O'raqov B. A.**